Hozirgi kunda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayoni ko'p subyektki xarakterga ega bo'lib, unda xususiy sektor, davlat institutlari hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlarning hamkorligi muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, energetika, jumladan, gidroenergetika sohasida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan, xalqaro moliya institutlari resurslaridan hamda innovatsion moliyaviy instrumentlardan keng foydalanish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, ularning samaradorligini oshirish hamda zamonaviy global va geosiyosiy sharoitlarga moslashtirish ilmiy-amaliy jihatdan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va korxonalarining moliyaviy strategiyasini shakllantirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda turli olimlar tomonidan muhim ilmiy-nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Xususan, A. Blank o'zining ilmiy ishlarida korxonalar moliyaviy strategiyasini shakllantirishning konseptual asoslarini ishlab chiqqan. Uning fikriga ko'ra, moliyaviy strategiya korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda asosiy vosita bo'lib, unda investitsiya faoliyati, kapital tuzilmasi va moliyaviy risklarni boshqarish o'zaro uyg'un holda olib borilishi zarur [2]. Muallif investitsiya resurslarini shakllantirishda optimal nisbatni tanlash korxonalar barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanligini ta'kidlaydi.

V. Bykovskiy esa innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish masalalariga e'tibor qaratib, investitsiya faoliyatining innovatsion rivojlanish bilan uzviy bog'liqligini asoslab beradi [3]. Uning yondashuvida investitsiyalarni moliyalashtirish nafaqat moliyaviy resurslarni jalb etish, balki ularni samarali boshqarish orqali innovatsion natijalarga erishish vositasi sifatida qaraladi.

O. Kovalenko ilmiy ishlarida korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini takomillashtirishda pul oqimlarini boshqarishning ahamiyatini asoslab beradi. Muallifning ta'kidlashicha, investitsiya loyihalarining samaradorligi ko'p jihatdan pul oqimlarini to'g'ri rejalashtirish va nazorat qilishga bog'liq bo'lib, bu esa moliyalashtirish mexanizmlarining barqarorligini ta'minlaydi [4].

M. Rezyapkin investitsiya jarayonining asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishdagi o'rini tahlil qilib, investitsiyalar korxonalar ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va modernizatsiya qilishning asosiy manbai ekanligini ko'rsatadi. U investitsiya jarayonini moliyalashtirishni iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida baholaydi [5].

F. Topsaxalova o'z monografiyasida investitsiyalarni iqtisodiy kategoriya sifatida tahlil qilib, ularning iqtisodiy o'sishdagi o'rni va ahamiyatini asoslab beradi. Muallif investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini alohida ta'kidlab, investitsiya muhitini yaxshilash orqali iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish mumkinligini ko'rsatadi [6].

A. Sheremet, R. Sayfulin va E. Negashev tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy tahlil metodikasi investitsiya loyihalarini baholashda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning yondashuvida moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi orqali investitsiya loyihalarining samaradorligi, likvidligi va risk darajasi kompleks baholandi [7].

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy ishlarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, moliyaviy strategiyani shakllantirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalalari turli jihatlardan yoritilgan. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda, ayniqsa, kapital sig'imi yuqori bo'lgan sohalarda, jumladan, gidroenergetika tarmog'ida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, tizimli yondashuv orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayoni ichki va tashqi omillar bilan o'zaro bog'liq tizim sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli yordamida ichki va tashqi moliyalashtirish manbalarining afzallik va kamchiliklari solishtirildi hamda turli moliyalashtirish shakllarining samaradorligi baholandi. Statistik tahlil usuli "O'zbekgidroenergo" AJ tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari bo'yicha quvvat, ishlab chiqarish hajmi va investitsiya qiymati ko'rsatkichlarini tahlil qilishda qo'llanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiya loyahasini moliyalashtirish strategiyasini asoslash iqtisodiy jihatdan muhim va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u moliyalashtirish usullarini tanlashni, investitsiya resurslari manbalarini aniqlashni hamda ularning optimal tuzilmasini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Mazkur jarayon investitsiya loyahasining moliyaviy barqarorligi, risk darajasi va iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya loyahasini moliyalashtirish usuli deganda loyihaning moliyaviy amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan investitsiya resurslarini jalb etish mexanizmi tushuniladi. Ushbu mexanizm nafaqat mablag'larni jalb qilish shakllarini, balki ularni samarali taqsimlash, boshqarish va nazorat qilish usullarini ham qamrab oladi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning quyidagi asosiy usullari ajratib ko'rsatiladi:

- o'zini o'zi moliyalashtirish, ya'ni investitsiyalarni korxonaning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirish;
- aksiyalashtirish va boshqa ulushli moliyalashtirish shakllari orqali kapital jalb etish;
- kreditli moliyalashtirish, jumladan, bank kreditlari va obligatsiyalar emissiyasi;
- lizing mexanizmlaridan foydalanish;
- davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish;
- turli usullarni uyg'unlashtirgan aralash moliyalashtirish;
- loyihaviy moliyalashtirish.

Iqtisodiy adabiyotlarda mazkur usullarning tarkibi va tasnifi yuzasidan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ayniqsa, "loyihaviy moliyalashtirish" tushunchasining mohiyati borasida bahs-munozaralar mavjud. Ushbu tushuncha keng va tor ma'nolarda talqin qilinadi.

Keng ma'noda loyihaviy moliyalashtirish investitsiya loyahasini amalga oshirishni moliyaviy ta'minlashning barcha shakl va usullari majmui sifatida qaraladi. Bunda u turli manbalarni safarbar etish, moliyalashtirishning diversifikatsiyalashgan tizimini shakllantirish va investitsiya loyahasini kompleks moliyalashtirish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, mablag'larning qat'iy maqsadli yo'naltirilishi va ulardan samarali foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Tor ma'noda esa loyihaviy moliyalashtirish investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning alohida usuli sifatida talqin qilinadi. Uning asosiy xususiyati shundaki, investitsiyalarning qaytimi asosan loyiha tomonidan yaratiladigan pul oqimlari hisobiga ta'minlanadi. Bunda loyihaga xos barcha moliyaviy, texnik va bozor risklari loyiha ishtirokchilari o'rtasida optimal taqsimlanadi. Ushbu yondashuv yirik, kapital sig'imi yuqori va uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirishda ayniqsa samarali hisoblanadi.

Keyingi tahlillarda loyihaviy moliyalashtirish tor ma'noda, ya'ni investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning alohida usuli sifatida ko'rib chiqiladi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari investitsiya resurslari sifatida foydalaniladigan pul mablag'lari majmuasidan iborat bo'lib, ular ichki va tashqi manbalarga ajratiladi. Ichki manbalar korxonaning o'z kapitali hisobidan shakllansa, tashqi manbalar jalb qilingan va qarz mablag'larini o'z ichiga oladi.

Ichki moliyalashtirish (o'zini o'zi moliyalashtirish) korxonaning ustav kapitali, sof foydasi va amortizatsiya ajratmalari hisobidan amalga oshiriladi. Ushbu manba investitsiya faoliyatining eng barqaror va mustaqil shakli hisoblanadi, chunki u tashqi majburiyatlar bilan bog'liq emas. Shu bilan birga, mablag'larning cheklanganligi sababli u asosan kichik va o'rta hajmdagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda qo'llaniladi.

Yirik va kapital sig'imi yuqori bo'lgan loyihalarni amalga oshirish esa tashqi moliyalashtirish manbalarini jalb etishni talab etadi. Tashqi moliyalashtirish moliyaviy institutlar, tijorat banklari, investitsiya kompaniyalari, davlat organlari, xorijiy investorlar hamda aholi mablag'larini jalb etish orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayon ulushli (equity) va qarz (debt) moliyalashtirish shakllari orqali ro'yobga chiqariladi.

Har bir moliyalashtirish manbasi o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Masalan, o'z mablag'lari moliyaviy mustaqillikni ta'minlansa, kredit mablag'lari investitsiya hajmini kengaytirish imkonini beradi, biroq foiz xarajatlari va moliyaviy risklarni oshiradi. Shu bois investitsiya loyahasini moliyalashtirishda optimal manbalar nisbatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi 1-jadvalda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarining afzalliklari va kamchiliklariga oid ma'lumotlar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarining taqqoslama tavsifi¹

Moliyalashtirish manbalari	Afzalliklari	Kamchiliklari
Ichki manbalar (o'z kapitali)	<ul style="list-style-type: none"> - Mablag'larni jalb etishning soddaligi, qulayligi va tezligi; - To'lovga qobiliyatsizlik va bankrotlik riskining pastligi; - Jalb qilingan mablag'lar bo'yicha to'lovlar yo'qligi sababli yuqori rentabellik; - Ta'sischi tomonidan mulkchilik va boshqaruvning saqlanib qolishi. 	<ul style="list-style-type: none"> - Mablag'lar hajmining cheklanganligi; - O'z mablag'larining xo'jalik aylanishidan chiqib ketishi; - Investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi ustidan mustaqil nazoratning cheklanganligi.
Tashqi manbalar (jalb qilingan va qarz mablag'lari)	<ul style="list-style-type: none"> - Katta hajmda moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyati; - Investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi ustidan mustaqil nazorat mavjudligi. 	<ul style="list-style-type: none"> - Mablag'larni jalb etish jarayonining murakkabligi va uzoq davom etishi; - Moliyaviy barqarorlik bo'yicha kafolatlar talab etilishi; - To'lovga qobiliyatsizlik va bankrotlik riskining oshishi; - Foiz va boshqa to'lovlar tufayli foydaning kamayishi; - Korxonada ustidan mulkchilik va boshqaruvni yo'qotish ehtimoli.

Investitsiya loyahasini samarali amalga oshirish uchun moliyalashtirish strategiyasini puxta asoslash, muqobil variantlarni kompleks tahlil qilish hamda mos moliyalashtirish sxemasini ishlab chiqish zarur. Tanlangan moliyalashtirish sxemasi quyidagi asosiy talablarga javob berishi lozim:

- investitsiya loyahasini to'liq va uzluksiz amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy resurslar bilan ta'minlash;
- moliyalashtirish manbalari tuzilmasini optimallashtirish orqali kapital qiymatini minimallashtirish;
- investitsiya loyahasining moliyaviy risklarini kamaytirish va barqarorligini oshirish;
- investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash.

Shunday qilib, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiyot sharoitida, ayniqsa, kapital sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarda, jumladan, energetika va gidroenergetika sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Investitsiyalarni moliyalashtirish tuzilmasida moslashuvchanlik muhim ahamiyat kasb etadi, chunki investitsiya loyihalarini o'zining miqyosi, amalga oshirish muddati va risk darajasi bilan bir-biridan farq qiladi. Yirik loyihalar uchun, odatda, risklarni investor va kreditor o'rtasida taqsimlashga asoslangan loyihaviy moliyalashtirishdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kichik hajmdagi tashabbuslar esa ko'pincha korxonaning sof yillik foydasi hisobidan moliyalashtiriladi.

Moliyalashtirish shaklini tanlash bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ular qatoriga korxonada mulkchilik tuzilmasi, qarz mablag'larining qiymati, davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlashining mavjudligi hamda xususiy investorlarni jalb etish imkoniyatlari kiradi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga barqaror yondashuvni shakllantirish ichki moliyaviy manbalarning rolini chuqur anglashni talab etadi. Bunda asosiy e'tibor sof foydaning qayta investitsiya qilinishi, ichki xo'jalik rezervlari hamda amortizatsiya ajratmalaridan samarali foydalanishga qaratiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, barqaror foyda dinamikasiga ega bo'lgan korxonalar qarz mablag'lariga kamroq ehtiyoj sezadi. Shunga qaramay, bunday korxonalar moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va ehtimoliy risklarni kamaytirish maqsadida bank kreditlari va boshqa moliyaviy instrumentlar bo'yicha takliflarni doimiy ravishda o'rganib boradilar.

Foiz stavkalarining yuqori darajada shakllanishi investitsiya loyihalarini qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni nisbatan qimmatlashtiradi, ayniqsa, rentabellik darajasi past bo'lgan korxonalar uchun bu sezilarli moliyaviy yukni yuzaga keltiradi. Shu sababli korxonalar moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish maqsadida muqobil moliyalashtirish shakllaridan keng foydalanadilar.

Bunday shakllarga obligatsiyalar chiqarish, aksiyalarni joylashtirish, xorijiy kapitalni jalb etish kiradi. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarida katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiluvchi loyihalarda xorijiy investitsiyalar muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda davlat institutlari muhim rol o'ynaydi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari (foiz stavkalarini subsidiyalash, grantlar ajratish, soliq imtiyozlari

1 Manba: muallif ishlanmasi



berish) investitsiya faoliyatining faollashuviga xizmat qiladi.

Qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etishda puxta ishlab chiqilgan biznes-rejaning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Biznes-reja loyihaning pul oqimlarini baholash, uning o'zini oqlash darajasini asoslash, qarz mablag'lari bo'yicha to'lovlarni tahlil qilish hamda investitsiyadan chiqish mexanizmlarini o'z ichiga olishi lozim.

Investitsiyalarni moliyalashtirish modelining samaradorligi nafaqat moliyaviy resurslarning mavjudligi bilan, balki moliyaviy tuzilmaning barqarorligi bilan ham belgilanadi. Moliyalashtirish shakllarini noto'g'ri tanlash pul oqimlaridagi uzilishlar, kredit reytingining pasayishi va investorlar ishonchining yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda "O'zbekgidroenergo" AJ asosiy gidroenergetika korxonasi hisoblanib, gidroelektr stansiyalarini qurish, modernizatsiya qilish va rekonstruksiya qilish bo'yicha yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirmoqda. Mazkur kompaniya tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar respublikaning energetik xavfsizligini ta'minlash, elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishni kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, gidroelektr stansiyalarini qurish bo'yicha investitsiya loyihalari yuqori kapital sig'imi, uzoq muddatli amalga oshirish davri va murakkab texnologik jarayonlari bilan ajralib turadi. Bu esa ularni moliyalashtirishda zamonaviy va samarali mexanizmlarni qo'llashni talab etadi. Xususan, ushbu loyihalarni moliyalashtirishda davlat budjeti mablag'lari, xalqaro moliya institutlari kreditlari, xorijiy investitsiyalar hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan keng foydalanilmoqda (2-jadval).

2-jadval. "O'zbekgidroenergo" AJ tomonidan amalga oshiriladigan gidroelektr stansiyalarini qurish bo'yicha investitsiya loyihalari ro'yxati² [1]

T/r	Loyihalar nomi	Loyiha quvvati, MVt	shu jumladan qo'shimcha quvvat, MVt	Yillik o'rtacha ishlab chiqarish, mln kVt-soat	shu jumladan qo'shimcha ishlab chiqarish, mln kVt-soat	Amalga oshirish muddati	Loyihaning taxminiy qiymati, mln doll.
JAMI		1 550,3	1 018,3	5 816,7	3 666,9		2 865,9
I.	Amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari	635,9	635,9	2 278,3	2 278,3	2018-2028	1 485,7
II.	Amalga oshirilishi rejalashtirilgan istiqbolli investitsiya loyihalari	867,8	335,8	3 377,8	1 228,0	2023-2028	981,9
III.	Amalga oshirilayotgan mikro va kichik GES qurilishi loyihalari	26,6	26,6	110,6	110,6	2023-2024	50,3
IV.	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish investitsiya loyihalari	20,0	20,0	50,0	50,0	2023-2026	28,0
V.	Suv omborlari bo'yicha investitsiya loyihalari					2021-2028	300,0
VI.	Mahalliyashtirish bo'yicha investitsiya loyihalari					2023-2025	20,0

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, "O'zbekgidroenergo" AJ tomonidan amalga oshirilayotgan va rejalashtirilayotgan gidroenergetika investitsiya loyihalari mamlakat energetika tizimini modernizatsiya qilish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirishga yo'naltirilgan kompleks dastur sifatida namoyon bo'lmoqda. Umumiy hisobda loyihalarning o'rnatilgan quvvati 1 550,3 MVtni tashkil etib, shundan 1 018,3 MVt qo'shimcha quvvat sifatida shakllantirilishi rejalashtirilgan. Yillik o'rtacha elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi esa 5 816,7 mln kVt-soatga teng bo'lib, uning 3 666,9 mln kVt-soati qo'shimcha ishlab chiqarish hisobiga ta'minlanadi. Loyihalarning umumiy taxminiy qiymati 2 865,9 mln AQSh dollarini tashkil etadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, investitsiya dasturi bir nechta yo'nalishlarni qamrab olgan bo'lib, ular orasida asosiy ulushni amalga oshirilayotgan va istiqbolli yirik gidroelektr stansiyalar tashkil etadi.

Birinchi guruh – 2018–2028-yillarda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari 635,9 MVt quvvat va 2 278,3 mln kVt-soat ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lib, umumiy investitsiya qiymati 1 485,7 mln dollarni tashkil etadi. Ushbu yo'nalish mavjud gidroenergetika infratuzilmasini kengaytirish va modernizatsiya qilishga qaratilgan.

Ikkinchi guruh – 2023–2028-yillarga mo'ljallangan istiqbolli investitsiya loyihalari 867,8 MVt quvvat va 3 377,8 mln kVt-soat ishlab chiqarish ko'rsatkichini ta'minlashi rejalashtirilgan. Ushbu loyihalarning 981,9 mln

2 Manba: muallif ishlanmasi



dollar miqdoridagi investitsiya qiymati gidroenergetika sektorining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ifodalaydi.

Uchinchi yo'nalish kichik va mikro GES qurilishi loyihalarini o'z ichiga oladi. Bu yo'nalish nisbatan kichik hajmga ega bo'lib, 26,6 MVt quvvat va 110,6 mln kVt-soat ishlab chiqarish ko'rsatkichini ta'minlaydi. Ushbu loyihalar 2023–2024-yillarda amalga oshirilib, mahalliy energiya ta'minotini markazlashmagan shaklda rivojlantirishga xizmat qiladi.

To'rtinchi yo'nalishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish investitsiya loyihalari ko'zda tutilgan bo'lib, 20 MVt quvvat va 50 mln kVt-soat ishlab chiqarish hajmiga ega. Bu yo'nalish 2023–2026-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, energetika tizimining ekologik barqarorligini oshirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, suv omborlari bo'yicha investitsiya loyihalari 2021–2028-yillarga mo'ljallangan bo'lib, 300 mln dollar miqdoridagi investitsiyalarni talab etadi. Ushbu yo'nalish gidroenergetika infratuzilmasining suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mahalliy lashtirish bo'yicha investitsiya loyihalari esa 2023–2025-yillarda amalga oshirilib, 20 mln dollar miqdorida investitsiyani o'z ichiga oladi va sanoat ishlab chiqarishida importga bog'liqlikni kamaytirishga qaratilgan.

Umuman olganda, tahlil qilingan investitsiya portfeli gidroenergetika sohasida kompleks rivojlanish strategiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu strategiya yirik, o'rta va kichik loyihalarni uyg'unlashtirish orqali energiya ishlab chiqarish quvvatini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash hamda qayta tiklanuvchi energiya ulushini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, "O'zbekgidroenergo" AJ tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarida moliyalashtirishning aralash modeli ustunlik qilmoqda. Ushbu yondashuv moliyaviy risklarni kamaytirish, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish hamda loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Natijada gidroenergetika sohasida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga, energiya ta'minotining diversifikatsiyasiga hamda ekologik jihatdan toza energiya ishlab chiqarishni kengaytirishga muhim hissa qo'shmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy iqtisodiy sharoitda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish korxonalar va tarmoqlar barqaror rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Investitsiya faoliyatining samaradorligi moliyalashtirish manbalari va usullarining optimal uyg'unligiga, shuningdek, risklarni to'g'ri baholash va boshqarishga bevosita bog'liqdir.

O'rganilgan nazariy yondashuvlar investitsiya jarayonida ichki va tashqi moliyalashtirish manbalarining o'zaro muvozanati muhim ekanligini tasdiqlaydi. Ichki manbalar korxonaning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, tashqi manbalar yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, loyihaviy, kredit, ulushli va aralash moliyalashtirish shakllarining integratsiyasi investitsiya faoliyatining barqarorligini oshiradi.

Amaliy tahlillar asosida "O'zbekgidroenergo" AJ tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari mamlakat energetika tizimini modernizatsiya qilish va qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirishda strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu loyihalar yuqori kapital sig'imi, uzoq muddatli amalga oshirish davri va murakkab texnologik tuzilmasi bilan ajralib turadi.

Shu bois gidroenergetika sohasida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda davlat budjeti mablag'lari, xalqaro moliya institutlari kreditlari, xorijiy investitsiyalar hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Aralash moliyalashtirish modeli esa moliyaviy risklarni kamaytirish va investitsiya samaradorligini oshirishda eng maqbul yondashuvlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, balki milliy iqtisodiyotning energiya xavfsizligi, sanoat salohiyati va ekologik barqarorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, gidroenergetika sohasidagi investitsiya siyosatini yanada rivojlantirish va moliyalashtirish mexanizmlarini modernizatsiya qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-iyuldagi "Gidroenergetika sohasini isloh qilish chora-tadbirlarini jadallashtirish to'g'risida"gi PQ-252-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-7024225>
2. Бланк А.И. Финансовая стратегия предприятия. – М.: Ника-Центр, 2004.
3. Быковский В.В. Организатсия и финансирование инноватсий. – Тамбов: Издво Тамбовского гос. техн. ун-та, 2006.



4. Коваленко О.Г. Совершенствование финансово-экономической деятельности организационной на основе управления денежными потоками // Актуальные вопросы экономики и управления: материалы междунар. заоч. науч. конф. – М.: РИОР, 2011.
5. Резяпкин М.Е. Место инвестиционного процесса в финансировании воспроизводства основных фондов предприятия // Экономика и управление. – 2009. – №5(54).
6. Топсахалова Ф.М.-Г. Инвестиции. Монография. – М.: Академия естествознания, 2010.
7. Шеремет А.Д., Сайфулин Р.С., Негашев Е.В. Методика финансового анализа. – М.: ИНФРА-М, 2001.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>